

USHLAB TURILGANLARNI, QAMOQQA OLINGANLANI SAQLASH JOYLARIDA PROKUROR NAZORATI TUSHUNCHASI VA VAZIFALARI

*Toshkent viloyati
yuridik texnikum o'quvchisi
Ro'ziboyeva Ruxshona Saidjon qizi*

Annotatsiya: Maqolada ushlab turilgan, qamoqqa olingan saqlash joylarida prokuratura nazorati haqida bayon qilingan

Kalit so'zlar: ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi demokratiya va ijtimoiy adolatga to'la asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish uchun zarur islohotlarni amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasining BMTga qabul qilinishi ijtimoiy hayotda ulkan siyosiy o'zgarish - mustaqil O'zbekiston davlati qaror topganligining qonuniy mustahkamlanganini namoyish etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti LA. Karimov «Qonun ustuvorligi - huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat'iy hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo'jalik yurituvchi va ijtimoiysiyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo'ysunish majburiyatidan xalos bo'lishi mumkin emas, qonun oldida hamma barobardir»¹ deb ta'kidlagan. Jamiyatni demokratik rivojlantirishni strategik maqsad va vazifalariga mos keluvchi huquqni muhofaza qiluvchi idoralardan biri prokuratura organlari hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy asosda davlat hududida qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishini nazorat qilish Bosh prokuror va unga bo'ysunuvchi prokurorlar zimmasiga yuklatilgan. Prokuratura idoralarning faoliyati qonunning ustuvorligini har tomonlama qaror toptirishga, huquq-tartibobii mustahkamlashga, O'zbekiston Respublikasi bilan mustahkamlangan, oliy qadriyat darajasida ko'tarilgan inson va fuqaroning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, shaxsiy huquqlari hamda erkinliklarini, shuningdek, davlat mustaqilligini, ijtimoiy davlat tuzumini, siyosiy va iqtisodiy tizimlarini, milliy guruhlar va hududiy tuzulmalarning huquqlarini g'ayriqonuniy tajovuzlardan muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan.

«Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasida prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri -ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoiy-huquqiy ta'sirining boshqa sohalarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 25-apreldagi sessiyasida yangi Jinoyat-ijroiya kodeksi qabul qilindi. Ushbu kodeks xalqaro huquqning mahkumlarni qiynoqqa solish va boshqa g'ayriinsoniy yoki kamsituvchi muomala turlaridan himoya

qilishni ko'zda tutgan o'ta muhim normalarni o'z ichiga olgan va qonuniylik, adolat, insonparvarlik, demokratizm, jazoni ijro etishda differentsiyalash va individuallashtirishga rioya qilish, majburlov vositalarini oqilona qo'llash hamda mahkumlarning qonunga itoatkor xulqatvorini rag'batlantirish prinsiplariga asoslangan. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 12-apreldagi «Sud qarorlarini ijro etishda va qamoqqa olinganlarni saqlashda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat boshqarmasi to'g'risida»gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 5-buyrug'i qabul qilingan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 11-maydagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda hamda qamoqqa olinganlarni saqlashda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 24-buyrug'i qabul qilingan bo'lib, unda quyidagilar ta'kidlab o'tilgan: «Mamlakatda yuz berayotgan huquqiy islohotlar natijasida davlat, jamiyat, luqaro, inson huquqlari va manfaatlariga davlat yondashuvi jiddiy takomillashmoqda. Davlat boshqaruvining jahon andozalariga mos yangicha huquqiy mexanizmi shakllanmoqda. Biroq, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda, qamoqqa olinganlarni saqlashda, jazoni ijro etish joylarida qonunlarga rioya etilishi ahvoli bugungi kun talabiga javob bermaydi. Mulkchilik, tadbirkorlik faoliyati va shartnomaviy munosabatlarni erkinlashuvi munosabati bilan ijro hujjatlari bo'yicha yuridik shaxslardan qarzlarni undirish amaliyoti birmuncha murakkablashdi.

Nazorat qilinmaydigan foyda olish imkoniyati vujudga kelganligi sababli jismoniy shaxslardan qarzlarni undirish muammosi mavjud. Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosini ta'minlashda sud ijrochilari hamda boshqa ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan ko'pgina hollarda ijro ishi yuritishni tartibga soluvchi qonunlar talablari buzilishiga yo'l qo'yilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonunida belgilangan ijro ishi yuritishni qo'zg'atish haqidagi qarorni undiruvchiga, qarzdorga hamda ijro hujjatini bergan sud yoki boshqa organga yuborish, qarzdorning mol-mulkini xatlash asoslari, tartibi va muddatlariga, ijro hujjatidagi talablari 5 kunlik muddatda ixtiyoriy ravishda bajarish qoidalariga rioya qilinmasligi holatlari mavjud. Sud ijrochilari mol-mulkni xatlash jarayonini xolislarisiz, bitta xolis ishtirokida yoki manfaatdor shaxslarni xolis sifatida jalb qilgan holda rasmiylashtirishga, mulkdorning huquqlarini poymol etib, undiruvga qaratilishi mumkin bo'lmagan mol-mulklarining xatlanishiga, qarzdorning mol-mulkini qonunga xilof ravishda tasarruf qilish holatlariga yo'l qo'ymoqdalar. So'nggi yillarda Jinoyat-ijroiya qonunchiligida sezilarli islohiy o'zgarishlar yuz berdi. Mahbus va mahkumlarning huquqlari kengaytirilib, qamoqda saqlash va jazoni ijro etish sharoitlari jahon andozalariga moslashtirilmoqda. Bu islohotlar jazoni ijro etish joylarida jinoyatchilikning keskin kamayishiga, qonuniylik va huquqtartibotning mustahkamlanishiga o'zining ijobiy samarasini ko'rsatmoqda.

Biroq, hamon Jinoyat-ijroiya kodeksidagi qator talablarga rioya etilmayapti, jazoni ijro etish muassasalarida sanitariya qoidalariga to'liq javob beradigan sharoitlar yaratilmagan, mahbus va mahkumlarga maishiy xizmat ko'rsatish qoniqarsiz ahvolda, ularning sog'ligini ta'minlash, malakali tibbiy yordam olish borasidagi huquqlari buzilmoqda, shaxsiy xavfsizlik choralari to'liq ta'minlanmagan. Mahkumlarni jamiyatdan ajratilgan holda saqlash sharoitlari hozirgi kun talablariga to'liq javob bermayotgani, ularning jazo o'tashlari ustidan nazorat yetarli emasligi natijasida muassasalar hududiga spirtli ichimlik, giyohvand moddalar va boshqa taqiqlangan buyumlar olib kirilishiga barham berilmagan, mahbus va mahkumlar jinoyat sodir etishi, jazoni o'tash tartibini qo'pol buzilishi holatlari davom etib kelmoqda.

Muassasalar xodimlarining mahbus va mahkumlarga nisbatan qo'pol muomalada bo'lishi, ularni kamsitish, qamoqda ushlab turish muddatlarini buzish, ozodlikdan mahrum qilish joylarida qonunga xilof ravishda saqlash, huquqlarini asossiz cheklash, qonuniy imtiyozlaridan mahrum etish, mahbus va mahkumlarni yetarli asoslarsiz karser va intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish holatlariga chek qo'yilmagan. Ozodlikdan mahrum qilish joylaridagi qonuniylik ahvoriga jazoni ijro etish muassasalarining mablag'i bilan to'liq ta'minlanmaganligi, muassasalar m a'muriyati faoliyatida qonun talablariga amal qilinmayotgani salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jinoyat-ijroiya m uhitining o'zgarishi, inson huquqlarini himoyalash prokuratura organlarining ustuvor vazifasiga aylangani prokuror nazoratining eski, yildan yilga takrorlanayotgan kamchiliklardan xalos bo'lishni, uning samaradorligini yangi bosqichlarga ko'tarishni taqozo etadi (yuzakichilik, qonunda belgilab berilgan vakolatlarini to'la hajmda tatbiq etmaslik, qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish masalalariga beparvolik bilan qarash, sustkashlikka, qat'iyatsizlikka yo'l qo'iyish, prokuror nazorati hujjatlarini qonunda belgilangan muddat ichida ko'rib chiqilmaganligiga chora ko'rmaslik va h.k.). Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 11-martdagi Farmoniga ko'ra, tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Sud qarorlarini ijro etishda va qamoqqa olinganlarni saqlashda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat boshqarmasi o'z faoliyatini qayd etilgan salbiy holatlarni oldini olishga qaratmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Karimov. O'zbekiston — buvuk kela jak sari. T., «O'zbekiston», 1998, 126-bet.
2. A.X. Halimov. Prokuraturaning davlat hokimiyati mexanizmi tizimidagi bo'limi. T., TDYI, 2006.
3. TA. Васильева. Административное право Италии. Административное право зарубежных стран. Учеб. пособие. (Под ред. А.Н. Козирова.) М., 1996.